

MAQOM PARDALARI TADQIQOTI: LAD KESIMIDA

Zufarov Abror Maxamad-Sadikovich¹

Y.Rajabiy nomidagi milliy musiqa san'ati instituti

KEYWORDS

Maqom, milliy san'at, musiqa, Shashmaqom, parda, lad, vazn, ohang, o'n ikki maqom, tarix, kuy.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maqom parda tizimi borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot masalalari lad kesimida qisman yoritilgan. Bunda qadimiy tarixiy jarayon, yaqin tarix va hozirgi ijrolardagi ladlar o'zaro solishtirish bilan bugungi maqom ijrochiligidagi ko'plab uchrayotgan muammoli savollarga javob izlandi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15564906**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Musiqiy lad - pardalar mavzusi uzoq davrlardan beri tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamda o'rganib kelinayotgan masalalardan hisoblanadi. Olimlarning fikricha musiqiy nazariyada lad², parda deb musiqa tovushqatorining muayyan va maxsus tartibdagi ko'rinishiga aytiladi.

B. Asafyevning ta'rifiga ko'ra, lad — bu musiqa tizimini tashkil etuvchi tovushlarning o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi tuzilma bo'lib, bu tizim hech qachon mutlaq yakunlangan holatda bo'lmaydi; aksincha, u doimiy ravishda shakllanish va qayta shakllanish jarayonida bo'ladi. Lad har bir tarixiy davrga xos bo'lgan intonatsion lug'atni, ya'ni jamiyat ongida chuqur o'rnashgan musiqiy leksikani aniqlaydi va umumlashtiradi. Bu esa musiqa tizimining dinamik xarakterini aks ettiradi, chunki har bir davr o'ziga xos musiqiy qadriyatlar va intonatsion shakllarni yaratib, ularni jamiyatning musiqiy ongi bilan uyg'unlashtiradi.

Maqomshunos olim I.Rajabov hulosalarida o'zbek-tojik xalqlari musiqasida tabiiy ladlar ta'siri bor ekanligi aytiladi.

Doriy, frigiya, miksoliy, eoliy, va gipofrigiya nomlari bilan mashhur tabiiy ladlar Jam'larning

¹ Y.Rajabiy nomidagi milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dotsenti

² Lad so'zi qadimiy slavyancha bo'lib, uni uyg'unlik, yaqinlik, hamohanglik, tartib deya tarjima qilish mumkin.

to'qson bir turi ichida mavjud deyiladi.

“Maqom tushunchasi so'nggi davrlardagi ta'rif bo'yicha ham “ijro etiladigan kuy va ashulalarning lad asosi bo'lib qola beradi. Muzika risolalarida “maqom”, “parda” iborasi bilan ham ataladiki, bu tushunchalar hozirgi zamon muzika nazariyasida ladni bildiradi”. (I.Rajabov Maqom masalasiga doir. 40 bet)

Ladlar va umuman, musiqa san'atining turli yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar, IX–XVII asrlarda yashab ijod etgan Al-Kindiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvish ali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga bag'ishlangan risolalarida bayon etilgan. Risolalarda qayd etilishicha, musiqaning nazariyasi va amaliyoti azaldan o'zaro bog'liq holda shakllanib kelgan.

Markaziy Osiyo hududida VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrning boshlarida yashagan afsonaviy sozanda, xonanda va bastakor Borbad Marvaziyning ijodiy ijrochilik merosi maqomlar va uning pardalari shakllanishining ilk qadamlari deb e'tirof etiladi. Manbalarda ahamiyatli xalqlarining keyingi tarixiy rivoji yo'lidagi ma'lumotlardan aynan bizning o'lkalarga xos ladlarning ilk amaliy shakllanishi jarayonlarini ilg'ab olishimiz mumkin. Bu jarayonni Abul Faraj al-Isfahoniy o'zining «Qo'shiqlar kitobi» asarida muhtasir qiladi va VII-IX asrlarda yaratilgan 1000 ga yaqin qo'shiqlar haqida ma'lumotlar bayon etadi. Ladlarning mukammallashuvi jarayonida «Ilk o'rta asrlar bastakorligi», «Borbad ijodi», «Abul Faraj al-Isfahoniy ijodi va xususan, uning «Qo'shiqlar kitobi» alohida ahamiyatga egaligi fanda e'tirof etiladi.

Abu Nasr Al-Forobiy (873–951) musiqaning tarkibiy qismlari nag'ma (tovush) va iyqo' (ritm) deya ta'riflagan edi. Musiqani bunday tovushlar va ritmning birligi sifatida aniqlash Forobiydan oldingi va uning davridagi mutafakkirlar Munajjim, Al-Kindiyning risolalarida ham takrorlanadi. Shuningdek Ibn Sino va Jomiyning musiqa borasidagi izlanishlarida ham musiqani tovush va ritm qismiga ajratib tadqiq etish nazariyasi asos qilib keltirilgan edi.

Yana boshqa G'arb olimlari mikroxromatika Sharq musiqasida eng ko'p qo'llaniladigan bezaklar sifatida “Musiqha haqida katta kitob” asarida nazariy tomonlama yoritilganligini aytadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI Ushbu nim pardalar, mikro intervallar qadimgi Yunon nazariyasida qayd etilmagan, Pifagor shkalasida ham uchramaydi. Bundan kelib chiqadiki Sharq musiqiy tovush tizimi o'ziga xos va individuallashtirilgan muayyan tendentsiyaga ega bo'lgan.³

Safiuddin al-Urmaviy esa, o'z urinishlari natijasida sharq musiqasining nazariyasiga, tovush qator tizimiga yangi o'zgartirishlar kiritadi. Xuroson tanburining pardalari yordamida ilmiy-amaliy tajribalar qilar ekan, Safiuddin al-Urmaviy o'zidan oldingi tajribalarga ergashadi. Bu borada Safiuddin Urmaviyning ta'limoti ham lad bo'yicha tafakkur etish evolyusiyasining sifat jihatidan yangi bosqichini belgilaydi. Uning qiziqishi ladlar ohangini xilma-xilligini tadqiqot etish, jinslar ichidagi turli xil intervallarni aniqlash yo'lidan umumiy asoslarga ega bo'lgan va

³Л.Г.Коваль. Интонирование Узбекской традиционной музыки. Т.;1990 г.

shu bilan juda ko'p sonli jam' tizimlarini tashkil etadigan jinslarni kombinatsiyalarini birlashtirish masalasiga o'tdi.

Bizgacha yetib kelgan maqomlar o'zagida ham qadimiy ladlar saqlanib qolgan. Shu bilan birga davrlar o'zgarishi, turli xodisalarning insoniyat boshidan kechib o'tishi lادلarning shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Bunga misol qilib yaqin o'tgan tarixni olsak bo'ladi.

Maqomlar lad lari tizimini o'rganish bevosita musiqiy tovush tizimiga bog'liq chunki, maqom ijrochiligi amaliyoti so'ngi vaqtlar mobaynida teng meyordagi temperatsiya tizimi bayrog'i ostida rivojlanib kelmoqda.

"Tovushlar orasidagi masofa-bo'd (interval)lar masalasiga keladigan bo'lsak, bu maqomotda eng chigal va ayni chog'da zamonaviy musiqashunoslik tomonidan juda kam o'rganilgan mavzu ekanligini qayd etish zarur". (O.Matyokubov "Maqomot" kitobidan)

TADQIQOT METODOLOGIYASI Bizgacha yetib kelgan Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, xalq yoki bastakorlar tomonidan yaratilgan asarlar ijro amaliyotida ladlar va ularning tovushqatorlari intervallari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Mazkur masalaga qaysidir ma'noda javobni teng meyordagi temperatsiya tizimi ta'siriga deyarli tushmagan ijrolar audio yozuvidan izlashni maqsad qildib, quyida Rizqi Rajabiyning ijro namunalaridan "Chapandozi bayot"ni kichik tadqiqot etmoqchimiz. Tajribamizdagi ijroda tanbur torlari quyidagi ravishda sozlangan:

Birinchii tor – Fa diyez; ikkinchii tor - Mi; uchinchi tor – fa diyez;

Asar tovushqatori pog'onalari:

+24	0	+6	-46	+28	0	-26	+24
I 176	II 206	III 148	IV 174	V 172	VI 174	VII 150	VIII
176	382	530	704	876	1050	1200	

Yuqoridagi "Chapandozi bayot" ning tovushqator pog'onalari intervallarini hozirgi ijrolardagisi bilan solishtirilsa intervallar qanday darajada o'zgarganligi ko'rinadi. Quyidagi nota yozuvida Navo va Bayot tovushqatorlarining amaldagi namunasi keltirilgan:

"Chapandozi bayot" ning "O'zbek xalq muzikasi" II-tomida keltirilgan namunasidan parcha.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Endi ko'rsatib o'tilgan uch variantning pog'onalari intervallarini tsentlar yordamida solishtirib chiqamiz.

a-"Chapandozi bayot" ning tadqiqot etilgan intervallari;

b-hozirgi ijrolardagi tovushqator intervallari;

c-“O‘zbek xalq muzikasi” II-tomida keltirilgan variantdagi intervallar:

	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII
a)		176	206	148	174	172	174	150
b)		200	200	100	200	200	200	100
c)		100	200	200	200	100	200	200


Albatta lad masalasida tovushqator va uning intervallari asosiy omillardan hisoblanadi. Intervallarni mantiqiy ravishdagi o‘rnini aniqlashda esa doim ham to‘g‘ri natijalarga erishish mushkul vazifa. Chunki, lad tovushlarining o‘z vazifasi, xususiyati va o‘rnini mufassal o‘rganib bo‘lmagunimizcha bunga aniqlik kiritib bo‘lmaydi. Ijro intonatsiyasida “nola”, “qochirim” kabi elementlarda uchraydigan tovushlar ba‘zan lad pog‘onalari qatoriga kirmagan bo‘lishi ham mumkin.

Shashmaqomda lad-parda masalasi juda ham murakkab va yechimi qiyin bo‘lgan vazifadir. Bugungi kunda maqom ijrochiligi va xususan uning ta‘lim yo‘nalishlarida bu borada muammolar ko‘p. Ma‘lumki, lad-pardalarning o‘z ichki qonuniyatlari mavjud. Bular boshlang‘ich parda, o‘rnashgan va o‘rnashmagan pardalar, intervallar, tovushlarning tortilish va yechilish xususiyatlari va boshqalar. Ushbu qoidalar maqomotda lad-parda bo‘yicha eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Hozirda maqomlarni nota yozuvi orqali talqini, ularni xromatik teng meyordagi temperatsiyalik cholg‘ularda ijro etish, xususan lad-pardalarga ma‘lum tizim sifatida emas, yahlit asar holicha o‘rganish va o‘rgatishlar qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan maqom ijrochiligi ta‘limida bunday yondoshuv maqomotga kirib kelayotgan yoshlarga bu sohada noqis ilm berish bilan kechmoqda. Ma‘lumki, O‘zbek maqomlari ichida yigirmadan ziyod lad-parda mavjud. Hozirgi holatda esa ularni bir biridan farqlarini ajratib olish qiyin. Masalan ba‘zi maqomlarni asar holatidan lad tovushqatori pog‘onalari ko‘rinishida oladigan bo‘lsak fikrimiz yanada tushunarli bo‘ladi.

1.



2.



Biz bu yerda ikki turdagi jins misolida keltirishimizdan maqsad har bir maqomda u yoki bu jinslar qo‘shilishi yoki aralash holda kelishini nazarda tutdik. Hozirda yuqorida keltirilgan yigirmadan ziyod lar-pardalalar shu ikki tizimda talqin etilarkan, maqomlarning o‘ziga xos ohanglarini saqlab turish, ularni bir biridan farqini ko‘rsatish, o‘rganish masalasi tobora sayozlashib borishi muqarrar. Talabalar asosan audio yozuvlaridan yahlit asarlarni o‘rganar ekanlar lad-parda tizimi bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega emaslar. Ba‘zi hollarda esa xatto

muallimlarning o'zida ham shunday holatlar kuzatiladi. Ko'pincha birinchi jinsga ta'luqli "Bayot" "Dugoh", "Rost" maqomlari va ikkinchi jinsga ta'luqli "Segoh" "Iroq" "Ushshoq" maqomlari nola, qochirimlari va tovushlarini ohanglashtirish chog'ida adashtirib yuborish holatlari bo'ladi. Yana bir ochiq misol keltiradigan bo'lsak, so'ngi ijrolarda "Garduni segoh" kuyida segoh ladidan ko'ra iroq ladini tinglashimiz mumkin. Yoki Iroq maqomi asarlari, xususan "Saraxbori iroq" da lad jinslarining qo'shilish yerlarida lad tonallik tizimi bilan modal tizimlarining nomutanosib jihatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Albatta bunday muammolarni oson hal qilib bo'lmaydi. Tizimli va ilmiy- amaliy tadqiqot, izlanishlar bilan amalga oshirsa bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR Maqolada maqom san'atining nozik jihatlaridan biri bo'lgan lad-parda tizimi va jinslar o'rtasidagi farqlarni to'g'ri anglash masalasi chuqur tahlil etilgan. Muallif ikki asosiy jins – birinchi va ikkinchi jinslar misolida maqomlarda ularning qanday aralashib kelishi yoki o'zaro almashinib turishi holatiga e'tibor qaratadi. Ayni paytda yigirmadan ortiq lad-pardalarning shu ikki tizimda talqin qilinayotgani, biroq ularni aniq farqlash, ohanglarini saqlab qolish va o'rganish jarayoni borgan sari sayozlashayotgani qayd etiladi. Talabalar, asosan, audio yozuvlar orqali yahlit asarlarni o'rganishmoqda, bu esa ularning lad-parda tizimi bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda. Hatto ayrim ustozlar ham bu borada chalkashliklarga yo'l qo'yishayotgani ta'kidlanadi.

Ijro jarayonida "Bayot", "Dugoh", "Rost" kabi birinchi jins maqomlari bilan "Segoh", "Iroq", "Ushshoq" kabi ikkinchi jins maqomlari aralashib ketishi, ularning nola va qochirimlari noto'g'ri ohanglanishi holatlari kuzatilmoqda. Masalan, "Garduni segoh" kuyida asl segoh ladi o'rniga iroq ladining eshitilishi yoki "Saraxbori iroq" asarida lad jinslari qo'shiladigan joylarda modal va tonallik tizimlari o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'layotgani muammo sifatida keltirilgan.

Bunday muammolar maqom san'atining asl mohiyatini, uning nozik ohangdorligini to'g'ri talqin etishga to'sqinlik qilmoqda. Shu boisdan, maqomlarning lad-parda tizimini chuqur ilmiy asosda o'rganish, amaliy mashg'ulotlar orqali uni talabalar va ijrochilarga to'g'ri yetkazish nihoyatda muhimdir. Bu esa faqat tizimli va puxta rejalashtirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, chuqur nazariy tahlillar hamda tajribali mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilishi mumkin. Maqom san'ati merosini asliga sodiq holda kelajak avlodga yetkazish uchun bu yo'nalishda chuqur izlanishlar olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

1. Barkashli M. Musiqiy Forobiy. Tehron, 1350 h.
2. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari T., 2008
3. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning ta'rixi. - Tos'hkent: Fan, 1993
4. Ibrohimov O. Maqom va makon. T., 1996
5. Jomiy Abdurahmon. Risolai musiqiy. QO'lyozma. O'FASHI. №1331
6. Matyoqubov O. Maqomot T., 2004

7. Mulla Bekjon Ramon O'g'li. Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musidiy tarixchasi. - Toshkent: Yozuvchi, 1998. - 47 b.
8. Nail Yavuzog'lu 21.yuz yilde Turk muzigi teorisi. Istanbul. 2009
9. Oripov Z. X-XV asrlar markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. T.,2017
10. Rajabiy Y. Shashmaqom, (I-VI); O'bek xalq muzikasi.(I-V) Toshkent. 1965
11. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
12. Risolai musiqiy. (N. Shodmon tarjimasi). T., 1998
13. Safiuddin Urmaviy. Kitob ul-advor. Qohira, 1967